

**“TASDIQLAYMAN”**  
**“O‘zbekiston TMK” AJ**  
**Boshqaruv raisining tijorat va**  
**marketing masalalari bo‘yicha**

o‘rinbosari

 A. Turdibayev

“ ” \_\_\_\_\_ 2026 y.

## TEXNIK TOPSHIRIQ

### TMK uchun korporativ katalog ishlab chiqish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha

#### 1. Umumiy qoidalar

Mazkur texnik topshiriq TMK uchun korporativ taqdimot katalogini ishlab chiqish xizmatlarini ko‘rsatishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Katalog kompaniyaning rasmiy imidj nashri bo‘lishi hamda davlat tuzilmalari, xalqaro hamkorlar, investorlar, tarmoq hamjamiyati va boshqa manfaatdor auditoriyalar bilan kommunikatsiyalarda foydalanilishi lozim.

Xarid predmeti konsepsiya, tuzilma, kontent, vizual tizim, dizayn, sahifalash va maketni chop etishga tayyorlashni o‘z ichiga olgan to‘liq sikldagi korporativ nashriyot mahsulotini yaratishdan iborat.

#### 2. Loyihaning maqsadi

TMKning muhim mineral resurslar sohasi rivojlanishidagi strategik o‘rni, kompaniyaning sanoat va investitsion salohiyatini aks ettiruvchi, shuningdek kompaniyaning yagona zamonaviy vizual va mazmuniy qiyofasini shakllantiruvchi korporativ katalogni yaratish.

#### 3. Xarid predmeti va kutilayotgan natija

Ijrochi korporativ katalogni ishlab chiqishning to‘liq siklini ta‘minlashi lozim, jumladan:

- katalog konsepsiyasi va tuzilmasini ishlab chiqish;
- rahbariyat va sohaviy mutaxassislar bilan intervyular o‘tkazish;
- original matnli kontent tayyorlash;
- vizual konsepsiya va dizayn tizimini ishlab chiqish;
- infografika va vizual materiallarni yaratish;
- fotosessiyalarni tashkil etish;
- katalog dizayni va sahifalash ishlarini bajarish;

- tahrir, korrektura va chop etishdan oldingi tayyorgarlikni amalga oshirish;
- yakuniy original-maketni topshirish.

Katalogning taxminiy hajmi: **100–120 sahifa.**

Yakuniy topshirish formati: chop etish uchun original-maket va katalogning elektron versiyasi.

#### 4. Ishtirokchilarga qo'yiladigan malakaviy talablar

Talab nomi	Talab etiladigan hujjat	Baholash usuli	Rad etish uchun asos	Ball
Ishtirokchi qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida emas, Buyurtmachi oldida bajarilmagan majburiyatlarga ega emas.	Kafolat xati	Muvofiqlik bo'yicha tekshirish	Hujjat mavjud emas yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim etilgan	Majburiy
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud emasligi	Soliq organi ma'lumotnomasi	Muvofiqlik bo'yicha tekshirish	Qarzdorlik mavjudligi yoki hujjat taqdim etilmaganligi	Majburiy
Ishtirokchi insofsiz ijrochilar reyestrda mavjud emasligi	Kafolat xati / Buyurtmachi tekshiruv	Muvofiqlik bo'yicha tekshirish	Reyestrda mavjudligi	Majburiy
Ko'p sahifali korporativ kataloglar, jurnallar yoki to'liq sikldagi nashriyot loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan tajriba	Portfolio, shartnomalar, dalolatnomalar, tavsiyanomalar	Ekspert bahosi	Tasdiqlangan tajriba mavjud emas	25
Davlat, xalqaro yoki yirik korporativ buyurtmachilar bilan ishlash tajribasi	Portfolio va tasdiqlovchi hujjatlar	Ekspert bahosi	Tegishli tajriba mavjud emas	10
Asosiy mutaxassislardan iborat loyiha jamoasi mavjudligi	CV va loyiha tavsiflari	Ekspert bahosi	Mutaxassislar talablarga mos emas	25

Talab nomi	Talab etiladigan hujjat	Baholash usuli	Rad etish uchun asos	Ball
Original tahririy kontent, intervyu, tahliliy va taqdimot materiallarini tayyorlash tajribasi	Materiallar namunalari	Ekspert bahosi	Tasdiqlangan tajriba mavjud emas	10
Vizual tizimlar, infografika va ko'p sahifali nashrlar dizaynini ishlab chiqish tajribasi	Dizayn portfolio	Ekspert bahosi	Portfolio mavjud emas	20
Loyihani amalga oshirish metodologiyasi va kalendar rejasi	Metodologiya va ish rejasi	Ekspert bahosi	Taqdim etilmagan	5
Moliyaviy taklif	Moliyaviy taklif	Ekspert bahosi	Shaklga mos emasligi	5

**Jami: 100 ball**

### 5. Kompaniya tajribasiga qo'yiladigan talablar

Ishtirokchi quyidagilar mavjudligini tasdiqlashi lozim:

- korporativ kommunikatsiyalar, nashriyot loyihalari, PR yoki media sohasida kamida 5 yillik tajriba;
- to'liq sikldagi kamida 3 ta amalga oshirilgan nashriyot loyihasi;
- davlat, xalqaro, milliy yoki yirik korporativ tashkilot uchun amalga oshirilgan kamida 1 ta loyiha tajribasi;
- hajmi kamida 80 sahifadan iborat ko'p sahifali nashrlarni tayyorlash tajribasi;
- amalga oshirilgan loyihalar portfoliolari va vizual namunalari.

Qo'shimcha ustunlik sifatida ko'p tilli nashriyot loyihalari, shuningdek sanoat, texnologiyalar, fan va innovatsiyalar bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirish tajribasi hisoblanadi.

### 6. Asosiy jamoaga qo'yiladigan talablar

Ishtirokchi asosiy loyiha jamoasini taqdim etishi shart. Taklif topshirilgandan so'ng asosiy mutaxassislarni almashtirish faqat Buyurtmachi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Mutaxassis	Minimal tajriba	Asosiy talablar
Loyiha rahbari	5 yildan	Kompleks nashriyot, kommunikatsion yoki korporativ loyihalarni boshqarish tajribasi; davlat tuzilmalari, xalqaro tashkilotlar yoki yirik kompaniyalar bilan ishlash tajribasi.
Bosh muharrir	3 yildan	Ko'p sahifali nashrlarni yaratish, tahririy arxitekturani ishlab chiqish, tahliliy va korporativ materiallarni tayyorlash tajribasi.
Kontent muharriri	3 yildan	Ishbilarmonlik, tahliliy va tarmoq matnlarini tayyorlash tajribasi.
Art-direktor	3 yildan	Korporativ kataloglar, jurnallar, kitoblar yoki taqdimot nashrlari uchun vizual konsepsiyalar ishlab chiqish tajribasi; dizayn tizimlari va infografika yaratish tajribasi.
Dizayner-sahifalovchi	3 yildan	Ko'p sahifali nashrlar dizayni va sahifalash tajribasi; maketlarni chop etishga tayyorlash tajribasi.
Prodyuser	5 yildan	To'liq sikldagi loyihalarni muvofiqlashtirish hamda tahririy, dizayn va ishlab chiqarish jamoalari bilan ishlash tajribasi.
Fotograf	3 yildan	Korporativ fotosessiyalar o'tkazish tajribasi; tegishli portfolio mavjudligi.

## 7. Tasdiqlovchi hujjatlar

- kompaniya haqida ma'lumotlar;
- amalga oshirilgan nashriyot loyihalari portfoliolari;
- kamida 3 ta ko'p sahifali nashr namunasi;
- shartnomalar, dalolatnomalar yoki boshqa tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;
- asosiy mutaxassislarning CVlari;
- amalga oshirilgan loyihalarda asosiy mutaxassislarning roli tavsifi;
- loyihani amalga oshirish metodologiyasi;
- kalendar reja;
- moliyaviy taklif.

## 8. Loyihani amalga oshirish bosqichlari

**1-bosqich** — Loyihani tashkiliy ishga tushirish, boshlang'ich materiallarni yig'ish, ishchi guruh va o'zaro hamkorlik jadvalini shakllantirish.

**2-bosqich** — Rahbariyat va sohaviy mutaxassislardan bilan intervyular o'tkazish.

**3-bosqich** — Katalog konsepsiyasi, tuzilmasi va tahririy arxitekturasini ishlab chiqish.

**4-bosqich** — Matnli kontent, tahliliy va imidj materiallarini tayyorlash.

**5-bosqich** — Vizual konsepsiya, dizayn tizimi va infografikani ishlab chiqish.

**6-bosqich** — Katalogni sahifalash, kelishish va tuzatishlar kiritish.

**7-bosqich** — Yakuniy tahrir, chop etishdan oldingi tayyorgarlik va yakuniy materiallarni topshirish.

## 9. Takliflarni baholash mezonlari

Takliflar quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizim bo'yicha baholanadi:

No	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1	Kompaniyaning o'xshash nashriyot loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tajribasi (kamida 5 yillik tajriba, kamida 3 ta to'liq sikldagi loyiha, davlat, xalqaro yoki yirik korporativ buyurtmachilar bilan ishlash tajribasi)	25
2	Asosiy loyiha jamoasining malakasi va tajribasi (loyiha rahbari, bosh muharrir, kontent muharriri, art-direktor, dizayner-sahifalovchi, prodyuser va fotografning tajribasi hamda kompetensiyalari)	25
3	Portfolio sifati va amalga oshirilgan loyihalarning mosligi (korporativ kataloglar, ko'p sahifali nashrlar, vizual konsepsiyalar, infografika va dizayn ishlari sifati)	20
4	Loyihani amalga oshirish metodologiyasi, vazifalarni tushunish darajasi va ish rejasi (ish bosqichlari, kalendar reja, loyiha boshqaruvi yondashuvi va risklarni boshqarish mexanizmlari)	15
5	Moliyaviy taklif	15
Jami:		100

### **Baholash tartibi**

1. Malakaviy talablarga javob bermaydigan ishtirokchilar keyingi baholash bosqichiga qo'yilmaydi.

2. Texnik va malakaviy qism bo'yicha maksimal ball – 85 ball.

3. Moliyaviy taklif bo'yicha maksimal ball – 15 ball.
4. Texnik va malakaviy qism bo'yicha minimal o'tish bali – 70 ball.
5. 70 balldan kam natija olgan ishtirokchilarning moliyaviy takliflari baholanmaydi.
6. Yakuniy reyting texnik, malakaviy va moliyaviy baholash natijalari yig'indisi asosida shakllantiriladi.
7. Eng yuqori yakuniy ball to'plagan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

### ***Qo'shimcha afzalliklar***

Quyidagi omillar qo'shimcha afzallik sifatida inobatga olinishi mumkin:

- \* ko'p tilli nashriyot loyihalarini amalga oshirish tajribasi;
- \* sanoat, texnologiyalar, geologiya, tog'-kon sanoati, fan va innovatsiyalar sohasidagi loyihalar tajribasi;
- \* davlat va xalqaro tashkilotlar uchun korporativ nashrlar yaratish tajribasi;
- \* xalqaro standartlarga muvofiq korporativ nashrlar ishlab chiqish tajribasi.

### **10. Loyihani amalga oshirish muddati**

Loyihani amalga oshirishning taxminiy muddati shartnoma imzolangan va Buyurtmachi tomonidan zarur boshlang'ich materiallar taqdim etilgan sanadan boshlab **30** **kalendar** **kunigacha.**

### **11. Yakuniy materiallarni taqdim etish formati**

Ijrochi Buyurtmachiga quyidagilarni taqdim etadi:

- ko'rish uchun PDF formatdagi katalog;
- chop etish uchun PDF formatdagi katalog;
- tomonlar kelishuviga muvofiq maketning manba fayllari;
- tahrirlash mumkin bo'lgan formatdagi matnli materiallar;
- loyiha doirasida tayyorlangan vizual materiallar arxivi.

**Brend va PR menejment  
bo'limi boshlig'i**



**Sh. Islamov**